

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA DIREKTOR O'RINBOSARINING TA'LIM JARAYONINI MUVOFIQLASHTIRISHDAGI BOSHQARUV MEXANIZMLARI

*Samarqand viloyati Jomboy tumani
13-Son DMTT direktor o'rinbosari
Shaminova Nargiza Nizamiddinovna*

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida direktor o'rinbosarining ta'lim jarayonini muvofiqlashtirishdagi boshqaruv faoliyati, innovatsion yondashuvlar hamda ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni yoritilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются управленческая деятельность заместителя директора в системе дошкольного образования, инновационные подходы и их роль в повышении качества образования.

Abstract. This article discusses the management activities of the deputy director in the preschool education system, innovative approaches, and their role in improving the quality of education.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, direktor o'rinbosari, boshqaruv, ta'lim sifati, monitoring, innovatsion yondashuv.


Ключевые дошкольное образование, заместитель директора, управление, качество образования, мониторинг, инновационный подход.

Key words: preschool education, deputy director, management, educational quality, monitoring, innovative approach.

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish hamda boshqaruv samaradorligini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda direktor o'rinbosarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Direktor o'rinbosari pedagogik jarayonni rejalashtirish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish hamda pedagog xodimlarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish orqali ta'lim sifatini ta'minlashda asosiy boshqaruv subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy boshqaruv tizimi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va strategik boshqaruv mexanizmlaridan foydalanishni talab etmoqda. Shu sababli direktor o'rinbosarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta'lim jarayonini muvofiqlashtirishdagi faoliyatini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Maqsad: Bolalarga maktabgacha yoshidan boshlab zamonaviy ta'lim berish, ularni psixik, aqliy va ijtimoiy va jismoniy jihatdan faol rivojlantirish – hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hal qilinishi kerak bo'lgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bunday o'quv mashg'ulotlari bolalarda katta qiziqish uyg'otib, o'yin davomida ortiqcha zo'riqishsiz mantiqiy hamda ijodiy fikrlash rivojlanadi, ijtimoiy faollik va axloq me'yorlariga rioya qilish ko'nikmalari tarbiyalanadi, tabiiy va ijtimoiy muhit to'g'risidagi tasavvurlari tartibga solinadi va tushunchalarni to'g'ri shakllanishi



ta'minlanadi. Ta'limning turli bosqichlarida davlat ta'lim standarti ta'lim faoliyati natijalari standarti sifatida qaraladi – ma'lum bir tarixiy davrda ma'lum bir jamiyat uchun zarur bo'lgan ta'limning mos yozuvlar darajasi; ta'lim standarti, ta'lim to'g'risidagi tegishli hujjatlarni olish uchun shaxs tomonidan erishish kerak bo'lgan daraja. Maktabgacha ta'limda davlat ta'lim standarti ta'lim jarayonini amalga oshirish uchun shartsharoitlarning standartidir. Maktabgacha ta'limning vaqtinchalik standartiga muvofiq, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsadi va natijasi ta'lim jarayonini amalga oshirish uchun sharoit yaratishdir. Ta'lim sifatini boshqarish (ta'lim sifati menejmenti) ta'limni boshqarishning umumiy tuzilmasi tarkibiga kiradi. Bunda ta'lim sifati menejmenti rahbarning yakkaboshchiligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan va amalda o'z samaradorligini ko'rsatgan boshqarishning chiziqli tuzilmasini inkor etmaydi. O'z o'rnida, sifat menejmentining joriy etilishi umumiy boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi – ta'lim muassasasi rahbari, xodimlari va manfaatdor jamoat tashkilotlari vakillari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Vazifalarning bajarilish ketma-ketligi, vazifalarning o'zi, bajarish yo'llari, alohida usul va xarakatlarning batafsil tartibi, ta'lim sifatini ta'minlovchi asos sifatida, qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samarali ijrosini kafolatlaydi.

Ta'lim jarayonini muvofiqlashtirishda direktor o'rinbosari bir qator boshqaruv mexanizmlaridan foydalanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

Rejalashtirish mexanizmi-Rejalashtirish boshqaruvning muhim funksiyasi bo'lib, ta'lim jarayonining maqsad va vazifalarini aniq belgilash imkonini beradi. Direktor o'rinbosari yillik, oylik va haftalik rejalar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etadi. Rejalashtirish jarayonida ta'lim standartlari, bolalarning yosh va individual xususiyatlari inobatga olinadi.

Monitoring va nazorat mexanizmi-Pedagogik monitoring ta'lim sifati va samaradorligini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. Direktor o'rinbosari mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish va pedagoglarga metodik tavsiyalar berish orqali ta'lim jarayonini nazorat qiladi. Monitoring natijalari asosida mavjud muammolar aniqlanadi va ularni bartaraf etish choralarini ishlab chiqadi.

Metodik boshqaruv mexanizmi-Direktor o'rinbosari pedagog xodimlarning metodik savodxonligini oshirish maqsadida seminar-treninglar, ochiq mashg'ulotlar va mahorat darslarini tashkil etadi. Bu esa pedagoglarning innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishiga yordam beradi.

Innovatsion boshqaruv mexanizmi-Zamonaviy ta'lim jarayonida AKT va raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Direktor o'rinbosari elektron monitoring tizimlari, raqamli platformalar va interaktiv metodlardan foydalanish orqali boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Kommunikativ boshqaruv mexanizmi-Samarali kommunikatsiya ta'lim jarayonini muvofiqlashtirishning muhim omillaridan biridir. Direktor o'rinbosari pedagoglar, ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikni yo'lga qo'yadi. O'zaro hamkorlik va axborot almashinuvi pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, bolalarga sifatli ta'lim-tarbiya berish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkiloti direktor o'rinbosarining faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki direktor o'rinbosari pedagogik jarayonni muvofiqlashtiruvchi, metodik ishlarni tashkil etuvchi hamda ta'lim sifati monitoringini olib boruvchi asosiy boshqaruv subyektlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi davrda an'anaviy boshqaruv usullaridan innovatsion boshqaruv tizimiga o'tish zarurati ortib bormoqda. Innovatsion boshqaruv pedagogik jarayonni yangi metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va interaktiv yondashuvlar asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Shu bois direktor o'rinbosarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tizimida direktor o'rinbosarining ta'lim jarayonini muvofiqlashtirishdagi boshqaruv mexanizmlari ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Rejalashtirish, monitoring, metodik boshqaruv, innovatsion va kommunikativ mexanizmlarning samarali tashkil etilishi pedagogik jarayon samaradorligini oshiradi. Shuningdek, direktor o'rinbosarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim muassasasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifatli ta'lim muhitini yaratish mumkin. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotida direktor o'rinbosarining innovatsion boshqaruv faoliyati pedagogik jarayonni muvofiqlashtirish, tarbiyachilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim o'rin tutadi. Uning kasbiy kompetensiyasi, liderlik qobiliyati hamda zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llay bilishi MTTda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bois maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, pedagoglarning kasbiy malakasini muntazam oshirish hamda ta'lim jarayonini zamonaviy boshqaruv mexanizmlari asosida tashkil etish ta'lim sifatini yanada takomillashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

DIREKTOR O'RINBOSARILARI UCHUN AMALIY TAVSIYALAR

1. Ta'lim sifatini nazorat qilishda muntazam monitoring va tahlil ishlari olib borilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim.
2. Direktor o'rinbosari tomonidan ota-onalar bilan hamkorlikni samarali tashkil etish orqali ta'lim-tarbiya jarayonining uzviyligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.
3. Pedagogik jarayonlarda interaktiv va innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish bolalarning bilim olish faolligini oshirishga xizmat qiladi.
4. Direktor o'rinbosarlarining boshqaruv faoliyatida motivatsion va kommunikativ yondashuvlardan samarali foydalanish tavsiya etiladi.
5. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ma'naviy-psixologik muhit yaratish orqali pedagoglarning ish samaradorligini oshirish mumkin.
6. Direktor o'rinbosarlarining faoliyatini baholash mezonlarini zamonaviy boshqaruv talablari asosida takomillashtirish lozim.
7. Ta'lim jarayonida raqamli monitoring tizimlarini joriy etish orqali boshqaruvning shaffofligi va samaradorligini oshirish tavsiya etiladi.
8. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion boshqaruv tajribalarini ommalashtirish hamda ilg'or xorijiy tajribalarni amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi me’yoriy hujjatlari.
3. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi 2022.
4. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. “Pedagogik texnologiyalar”. – Toshkent, 2019.
5. Ishmuhammedov R. “Innovatsion pedagogik texnologiyalar”. – Toshkent, 2020.R.Ishmuhammedov, M.Yo‘ldoshev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (Ta’lim tizimi hodimlari metodistlar, o‘qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o‘quv qo‘llanma) – T: 2013.
6. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Moliya,

